



Received: April 2, 2022
Accepted: June 14, 2022
Available online: June 25, 2022

Fayzulla Iskandarov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDAGI NA'TLARNING BADIYY MAZMUNI XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Dunyo xalqlari adabiyoti rivojiga, g'oyaviy-badiiy mazmunining yuksalishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan, ming yillar davomida ijod ahliga ilhom manbai, minglab shoirlar sevgan mavzuga aylangan mavzulardan biri – komillik va komil inson masalasidir. Musulmon xalqlari ma'naviyatida, shu jumladan, adabiyotida azal-azaldan mutlaq komil inson sifatida payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam madh etilgan va u zotga bag'ishlab yuzlab asarlar bitilgan.

Turkiy adabiyotning yirik vakili, o'z asarlarida inson kamolotini muhim masala sifatida badiiy talqin etgan Alisher Navoiy asarlarida ham Rasululloh madhi muhim o'rin tutadi. Shoir devonlarida ushbu mavzudagi o'nlab g'azallar mavjud bo'lsa, dostonlarining har birida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Aytish mumkin, Navoiyning har bir asarida nabi madhi, vasi va u zot bilan bog'liq tarixiy voqealar, jumladan, me'rojga alohida o'rin ajratilgan. Jumladan, dostonlaridagi muayyan boblarda shoir payg'ambar siyrati va ilohiy mo'jizalarini maxsus badiiy tadqiq etish bilan birga o'zining komil inson haqidagi adabiy-estetik va diniy-tasavvufiy qarashlarini badiiy talqin qiladi. "Xamsa" dostonlarining debochasidan mustahkam o'rin olgan bu boblarda Alisher Navoiy uchun payg'ambarning buyukligi, yuksak sharafiga va ulug' maqomi ta'rifini keltirish, avvalo, shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, salaflarga munosib javob berish uchun yana bir sinov maydoni ham edi. Shu ma'noda maqolada shoirning ushbu dostonlardagi na'tlarni bitishdagi mahorati, istifoda etgan badiiy san'atlar o'rganilgan, komil inson va komillik haqidagi qarashlari vasi na'tlar asosida tahlil etilgan.

Fayzulla Iskandarov

Doctoral Student (DSc), Alisher Navoi Tashkent State
University of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mfayzullaiskandarov@gmail.com

ARTISTIC DESCRIPTION OF THE PROPHET'S IMAGE IN THE POEMS "KHAMSA" BY ALISHER NAVOI

ANNOTATION

One of the topics that has had a great influence on the development of national literatures of the world, the rise of ideological and artistic contents, has become a source of inspiration for creative people for thousands of years, and has become a topic loved by thousands of poets is the theme of perfection and a perfect person. In the spirituality and literature of Muslim nations, our Prophet Muhammad has been praised as an absolutely perfect person since time immemorial, and hundreds of works have been written dedicated to him.

Alisher Navoi, a great representative of Turkish literature, who artistically interpreted human perfection as the main important issue in his works, also has an important place in the works of Rasululloh. There are dozens of ghazals on this topic in the poet's divans, and each of his epics pays special attention to this issue. It can be said in each of Navoi's works, a special place is reserved for the praise of the Prophet, his attributes, and historical events related to him, including Mi'raj. In particular, in certain chapters of his epics, the poet artistically interprets his literary-aesthetic and religious-mystical views about the perfect human being along with a special artistic study of the Prophet's poetry and divine miracles. For Alisher Navoi, these chapters, which have taken a strong place in the prologue of the "Khamasa" epics, describe the greatness, high honor and great status of the Prophet, first of all, it is the poet's duty and the task of the community, and secondly, it is another way to give a worthy answer to the predecessors, has also been a testing ground. In this sense, the author of the article examines the poet's skill in writing the verses in these epics, the literal

Kalit so'zlar: nabiy, na't, vasfiy na'tlar, me'roj, payg'ambar nuri, komillik, komil inson, nur, soya, noma, xoma, oy, quyosh.

arts used by him, and analyzes his views on the perfect person and perfection based on the verses.

Key words: nabi, na't, descriptive na'ts, miraj, Prophet's light, perfection, perfect person, light, shadow, epistle, khoma, moon, sun.

KIRISH

Turkiy adabiyotda Alisher Navoiydek Payg'ambarimiz Muhammad alahissalomga madhlar – na'tlar bitgan shoir bo'lmasa kerak. Shuning jihatdan, Navoiyning **“na't shoiri** unvoniga loyiq shaxs bo'lganligi diqqatga sazavordir” [Yeniterzi E., 1989; 31]. Nabiy madhi kuychisi hisoblangan Navoiy “Xamsa”ning barcha do'stonlari muqaddimasida an'anaviy hamd va munojotlardan so'ng shoir o'z ideali, sevgan insoni – komillar komili payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni vasf etadi.

Bu zot insoniyatni to'g'ri – haq yo'lga da'vat etarkan, avvalo, o'zi o'zgalarga namuna bo'ldi, husn-u xulqdagi go'zalligi, muomala odobi, din-u diyonati, hadislarini va surat-u siyrati bilan barchani chin yo'lga boshladi. Bunday zotlarni ulug'lash, uning vasfini bitish bir tomondan, kitob bitish, uni tartiblash bilan bog'liq talablar bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu vasflarni yozish jarayonida ijodkor o'zini, dunyoni mukammalroq anglay boshlaydi va bu holatni boshdan kechirishni kitobxonga ham o'tkazadi. Adabiyot tarixida juda ko'plab sabablarga ko'ra minglab na'tlar yozilgan. Hammasidan maqsad bitta – payg'ambar shafosatiga erishish, bu orqali Allahga itoatda bo'lib, uning jamoliga yetishishdir. Navoiy barcha masnaviylarida Rasulullohni madh etarkan, do'stonlarining har birida alohida vasf va me'roj na'tlarni bitadi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” do'stonida 173 bayt, “Farhod va Shirin” do'stonida 103 bayt, “Layli va Majnun” do'stonida 150 bayt, “Sab' ai sayyor” do'stonida 142 bayt, “Saddi Iskandariy” do'stonida 178 bayt, “Lison ut-tayr” do'stonida 81 bayt vasf va me'roj na'tlari kiritilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Navoiy ijodida Payg'ambar siymosini juda ko'p tavsif etsa-da, shoir har bir janriy na'tlarga alohida vazifa va alohida falsafiy-ma'rifiy qarashlarini singdirgan. Tiriklikning sababi, olamlarning asosi bo'lgan nubuvvat ma'rifati mohiyati, holiqning sifatlari, vahdat xazinasi, ilohiy ishq talqini, tavhid g'oyalari batafsil yoritilgan, badiiy tasvir vositalariga boy, boshqa kishilarga nasib etmagan Tangrining ehsoni – “Xamsa” fikrimiz dalilidir.

ASOSIY QISM

“Xamsa” dagi na'tlarga bag'ishlangan muqaddima boblar ularga yuklangan vazifalar bois katta ahamiyatga ega. “Xamsa” do'stonlaridagi muqaddimalar, shu jumladan na'tlar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki do'stonlardagi katta mazmunning ochqichi hamdir.

Har bir do'stondagi na'tlarni ikki masala doirasida alohida-alohida sarlavhalar, vasf va me'roj mavzusiga bog'lab kitobxonga taqdim etgan shoir o'zigacha mavjud an'analar doirasida turib, ular vositasida o'zining muhim fikrlarini aytishga muvaffaq bo'lgan. Vasf na'tlarda payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallomning

tarjimayi holi, ijtimoiy faoliyati, umuman olganda, Rasulullohni tegishli barcha shakliy, qavliy, xalqiy, xulqiy va fe'liy masala va sifatlar madh etilgan. Shoir o'zining komillik va komil inson haqidagi diniy-tasavvufiy, falsafiy-estetik qarashlarini san'atkorona bayon etib, har bir bobga alohida vazifa yuklaydi. "Xamsa" tarkibidagi na'tlar garchi hammasi umumiy ma'noda Rasulullohni vasf etib, me'roj voqeasini badiiy tasvirlasada, ammo, Navoiy har bir do'stunda so'z yuritilayotgan mavzu tabiatiga uyg'un holda, na'tlarda ham alohida – o'ziga xos masalalar talqinini beradi.

Jumladan, "Hayrat ul-abror" yaxlit "Xamsa" uchun kengaytirilgan rejanoma bo'lish bilan birga, ilk bobidan boshlab, butun "buyuk beshlik"ka ishora qiladigan "xizr chashmasi"dir. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" do'stonida nabiy vasfi uchun to'rt na't bobni ajratadi. Ushbu vasfiy boblar mavzu ko'lami, kompozitsion qurilishi, badiiyati hamda baytlarning miqdoriga (1-na't – 26 bayt; 2- na't – 28 bayt; 3-na't – 32 bayt; 4-na't – 34 bayt) ko'ra xususiylikka ega bo'lsa-da, mazmunan bir-birini to'ldiradigan mantiqiy umumiylikka ega. Ushbu boblarda Hazrat Navoiy, bir tomondan, payg'ambarimizning islom dinini joriy etish yo'lidagi buyuk xizmati, payg'ambarlik sifatleri va faoliyatiga doir lavhalar, u zotning komil xulqlari, fazilatleri, ularga yuborilgan mo'jizalar, xususan, me'roj kechasi tasviri keng berilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, "shoirning Alloh, olam va odam haqidagi, koinotning sarvari Rasululloh haqidagi diniy-so'fiyona bilimlari, qarashlar va tasavvurlari bilan uyg'unlashib ketganligini ko'ramiz" [Mullaxo'jayeva K., 2019; 47].

"Hayrat ul-abror" yaxlit "Xamsa" uchun kengaytirilgan rejanoma bo'lish bilan birga o'sha nodir ma'naviy xazinada badiiy talqinini topgan son-sanoqsiz mavzular mohiyatini chuqur anglash yo'lini ochadigan kalit" [Vohidov R., 1994; 45] vazifasini o'taganidek, ushbu do'stondagi na't boblar keyingi do'stondagi na'tlarlar mazmunini ochishga yordam beradi.

"Ul hazratning nuri qadamiyatidakim zot bahrining avvalg'i junbushida ul durri bebaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi'asi lam'a ko'rguzdi va durjdin durjg'a intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohg'a yetti" [Navoiy, 2006; 27] nomli sarlavha bilan boshlangan "Avvalg'i na't"ni muallif "Haqiqatlar haqiqati" haqidagi xabar bilan boshlaydi.

"Muhammadiy haqiqat" islomiy tasavvuf adabiyotida keyingi davrlarda paydo bo'lgan istilohdir. Unga ko'ra, Nabiy sollallohu alayhi vasallam nurdan yaratilgandirlar, u zotning nuroniy haqiqati ruhoniy maxluqotlar ichidagi ilk mavjudotdir. Uning nuridan dunyo va oxirat yaratilgan. U nur hayotning asli hamda barcha borliq, dunyoviy va uxroviy mavjudotlarda sizib yuradi" [Barzanjiy H., 2015; 82]. Payg'ambarimiz nurlari – Nuri Muhammadiy va Odam Atoning dunyoga kelish tarixi badiiy tasviri bilan boshlangan ushbu bobda Navoiy o'zining diniy-tasavvufiy, falsafiy qarashlarini batafsil bayon etadi. Dunyoning yaratilishi va unga sabab, odam va uning bu dunyoda yashashdan maqsadi, o'zligini topishga intilishi hamda o'z o'zni qay darajada ekanligini bilish uchun doimo intilishiga oid tasvir-u tavsiflarida teran va kuchli falsafiy fikr-mushohadalar yuritib, nihoyatda nozik badiiy did egasi ekanligini namoyon etadi. Ushbu 26 baytdan iborat dastlabki bobning o'zida shoir bashariyat tarixidagi juda katta davrni qisqa, aniq, lo'nda, ishonarli tarzda va badiiy yo'sinda

haqqoniy tasvirlaydi. Voqea-hodisalarni ketma-ketlik asosida, dalillarga tayanib keltiradi. Ushbu na't bobdagi voqea-hodisalarni mazmun-mohiyati va zamon-makon nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

1-jadval.

T/r	Davr	Voqealar	Baytlar
1.	Eng qadimgi davr	butun koinot, olamlar va odam yaratilguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi	Ey qilibon lam'ai nurung zuhur, Andaki ne soya bor erdi, ne nur. Nurunga tob ikki jahondin burun, Harne yo'q ondin burun, ondin burun.
2.	Qadimgi davr	olamlar va odamning yaratilishi hamda yer yuzida insoniyatning ko'payishidan toki saodat asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi	Ayladi chun odami xoki zuhur, Soldi anga partavin ul pok hur... Egniga yopilda davoji sharaf, Kildi makon boshig'a toji sharaf.
3.	Yangi davr	ya'ni payg'ambarimizning tug'ilishlari bilan boshlangan davr	To atodin ato, anodin ano, Bir ano kim yo'q edi andoq ano. Bo'ldi risolat durining maxzani, Balki nubuvvat gulining gulshani... G'am tunini nirsirish ayladi, Yer yuzini bog'i bihisht ayladi.

Mazkur do'stondagi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vasfi va uning siyratiga bag'ishlangan ushbu to'rt bobning har biri muayyan muddaoni badiiy tadqiq etishga bag'ishlangan. Har bir na't yaratilishi, mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va mazmuniy joylashishiga ko'ra ham o'z tartibiga ega. Garchi na't boblar mavzusi va badiiy jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, ularning barchasini Rasulullohni ulug'lash va Ul zotning buyuk shaxsiyati hamda ijodkorning cheksiz muhabbati birlashtirib turadi. Jumladan, ijodkor Komillar komiliga bag'ishlangan na't boblarning ikkinchisida – Sarvari koinotning bolalik yillari, dastlabki yashash tarzi, shuningdek payg'ambarlik sifati berilgunga qadar qilgan ishlari va faoliyatini badiiy tasvirlaydi.

“Avvalg'i na't”ning mazmuniy-mantiqiy davomi bo'lgan ushbu na'tda shoir “aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirq yilg'acha andin hayo va adab gullari ochilib, andin so'ngra nubuvvat mevasi bergani, dog'i shox va bargin sidra shoxidin o'tkarib, ikki olam ahli soyai rahmatig'a kirgani” haqida badiiy mushohada yuritib, u zotning komil xulqlarini ulug'laydi.

*Ey, ko'runub g'urra kibi tiflzod,
Tifli rahing charxi qadimiy nihod.
Insu malak joniyu jononasi,
Ikki jahon gavhari yakdonasi.
Mahd sanga lavhai firuza rang,
Kim harakatdin anga bo'lmay darang.*

So'nggi payg'ambarning insoniyatga yuborilishi odamzot uchun katta saodat edi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam zulmatga cho'kkan dunyoni nurga to'ldirib, g'aflatda qolib adashganlarni haq yo'lga boshlab, “odamzotning changakda qolgan fikratini ozodlikka chiqarib, tuman va zulmat ichidagi qalblarni nur va

yog‘du ila najot yo‘liga chorladilar” [Malik A., 2021; 141]. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odam bolasiga berilishi mumkin bo‘lgan barcha ezgu fazilatlar bilan xulqlangan edilar. Hazrat Navoiy ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratib, avval nur ko‘rinishida bo‘lgan zotning inson sifatida dunyoga kelishini g‘urraga, uning bolalik paytini esa navras niholga qiyoslaydi. “Navras nihol go‘daklik, o‘tib-ulg‘ayishning istiorasidir. Bu nihol qirg yilgacha qiyg‘os gulladi. Gullari hayo va adabdan iborat edi. Qirg yoshida baquvvat daraxtga aylandi, u daraxtda nubuvvat – payg‘ambarlik mevasi bitdi” [Malik A., 2021; 142]. Ushbu go‘zal baytlarda Navoiy Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni butun ins-u malakning joni va jononasi deb ulug‘laydi. “Lavhai feruzarang” osmon “ikki jahon gavhari yakdonasi” bo‘lgan “g‘urra kibi tiflzod”ga beshik bo‘lib xizmat qilardi. Tashbehi tomm bo‘lgan “Lavhai feruzarang” osmonning sifati bo‘lishi bilan birga, payg‘ambar beshigi hamdir. Koinotni tasvirlar ekan shoir Nuri Muhammadiyaga ishora qilib, bu nur uchun butun osmon beshik bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Irfon, ishq va komillikka yetish yo‘lidagi kurash – nafsni yengish, ilm olish va hunar egallash kabi muhim sifatlar targ‘ibi va talqiniga bag‘ishlangan “shavq do‘stoni” “Farhod va Shirin”da nabiy madhi uchun ikki bob – 35 bayt vasf va 68 bayt me‘rojnoma – jami 103 bayt ajratilgan. Nabiullohning komil xulqi ta’rifiga bag‘ishlangan do‘stoning uchinchi bobi – vasf na’t “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig‘a soya soldi va Vashshams bila Vallayl surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o‘xshatilg‘onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul quyoshqa soya yo‘q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o‘q erdi. “Va sallalalohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi” [Navoiy, 2006; 12] sarlavhasi bilan boshlanadi. Sarlavha asarning siqiq mazmuni va u shoirga alohida mas‘uliyat yuklaydi. Chunki, sarlavha yaratishdagi eng qiyin vazifa shoir ko‘zlagan adabiy maqsadini yangi ifodalar orqali qisqa jumalalarda ko‘rsatishdir. Alisher Navoiy barcha asarlarida “katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o‘sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko‘zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi” hamda “sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko‘rsatish singari funksiyalarni yuklaydi” [Ismoilov I., 2019; 44]. Odatda, asosiy g‘oyani sarlavhadan boshlaydigan Navoiy, bobning ilk jumlasidanoq, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning komil xalqlari – shakl-u shamoyili, tashqi ko‘rinishlari vasfi haqidagi poetik informatsiyani beradi. “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu qo‘yoshg‘a soya soldi...” jumlasini sarlavhadagi asosiy tezis bo‘lib, quyosh, tun, soya obrazlari tanosubni hosil qilib, bobdagi asosiy fikrni tashuvchilar hisoblanadi. Komillar komilining yuzini quyoshga, sochining qorasini tunga o‘xshatgan Navoiy u zotning go‘zalligini “Vash-shams bila Val-layl” suralariga mengzaydi.

Ushbu suralarda Alloh taolo quyosh va uning ziyosi, uning ortidan kelgan oy, quyoshni ravshan ko‘rsatgan nahor va uni qoplagan tun, osmonlarning bino qilinishi-yu yer va uning to‘shalishi hamda nafs va uning mukammal qilinishi bilan qasam ichadi. “Bunda, avvalo, qasam ichiladigan narsalarga e‘tibor tortish bilan bir qatorda, ularning ketidan zikr qilinadigan xususiyatlariga ham e‘tiborni tortish qasd qilingandir... Bu

bilan inson, Alloh taologa taqvo qilsa, najot topishi, tug‘yon va isyonga ketsa, xusronga uchrashi ta’kidlanadi” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 640]. Ayni damda “Alloh taoloning shuncha narsalar bilan qasam ichishidan maqsad – ulardan keyin keladigan masala, ya’ni inson nafsining pok bo‘lishiga e’tiborni tortish, uning ahamiyatini orttirishdir” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 595]. Suralarning keyingi oyatlarida insonlarga nafsning ikki yo‘li: fujur va taqvo haqida ogohlantirib, yaxshilik va yomonlik orasi aniq ko‘rsatib o‘tiladi. Yuqoridagilarga amal qilgan esa, “Batahqiq, kim u(nafs)ni poklasa, yutuqqa erishi”shi ta’kidlanadi” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 595].

Navoiy ushbu nozik ma’nolar orqali do‘stondagi asosiy masala – komillik yo‘lidagi Farhod bilan nafs yo‘lida andarmon Xusrav orasidagi azaliy kurashga ishora qiladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bag‘ishlangan vasf bobini shoir “Layli va Majnun” dostonida “Ul risolat sipehrining quyoshi na’tidakim, mag‘rib soridin tulu’ qilib, Makka avjida kamol tutti, balki anvori ashroqi bila mashriqdin mag‘ribqacha “Kash-shamsi nisfun nahor” yorutti va kufr shomida islom sham’i yoqti va shomg‘a yaqin uyoqti” [Navoiy, 2006; 12] sarlavhasi bilan boshlaydi. Ya’ni, ushbu bobda shoir komillar komilining Payg‘ambarlik maqomi va buyuk, betakror fazilatlar haqida to‘xtaladi. Garchi ummiy bo‘lsa-da, ilmi ladunniy egasi, “kalomi mo‘jiz” sohibidir. “U zotga Alloh taolo purma’no so‘zlar, xislatli hikmatlar, balog‘atli va’z-nasihatlar bilan xitob qilish iste’dodi, muhkam (aniq, ishonarli, qat’iy – ta’kid bizniki . *F.I.*) dalillar bilan uzil-kesil hukm chiqarish mahoratini ato qilgan edi. Payg‘ambar alayhissalom shunday marhamat qilganlar: “Men ummiy (**o‘qish-yozishni o‘rganmagan**) payg‘ambar – Muhammadman (**buni uch marta aytganlar**), mendan keyin birorta payg‘ambar bo‘lmaydi. Menga kalomning boshi-yu oxiri va javomelari ato qilindi. Boshqa bir rivoyatda kelishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam minbarda turib: “Ey insonlar! Menga purma’no so‘zlar va ularning xotimalari ato etilib, men uchun juda muxtasar qilindi” [Hasaniy Muhammad, 2019; 67], deganlar. Qalam ushlamagan bo‘lsa-da, butun xalqlarning unga bosh ekkani, ya’ni, haq yo‘lga yurgani, ikki jahon uning sababidan tartibga tushganini ta’kidlaydi. Ul zotning har bir so‘zini qadrlab, baxt-saodatda erishish va komil mutlaq bo‘lish uchun:

*Ey zumrai anbiyo shafei,
Olam eli buyrug‘ung mutei.
Buyrug‘laring elga qarz yanglig‘,
Sunnatlaring elga farz yanglig‘ –*

itoat etib, chin qalbdan muhabbat bilan ergashish lozimligini uqtiradi. Nabiy ma’rifatini o‘zida aks ettirgan ushbu bobda Rasulullohning ham insoniy, ham payg‘ambarlik buyuk xulqlari mahd etilib, o‘zining kamolot nuri bilan mashriqdan marg‘ibgacha barchani Quyosh kabi yoritib, kufr va jaholat uzra islom shamini manguga yoqib, shomga botishini Majnun qismatiga mengzashimiz mumkin.

Yettiliklar asosiga qurilgan “Sab’ai sayyor” dostoniga Alisher Navoiy qadimiy Eron shohi Bahrom Go‘r bilan bog‘liq afsonalar asos qilib olgan. O‘zining kuchli

romantik qarashlari va jozibador tashbehlari zaminiga avvalgi ikki doʻstondan farqli oʻlaroq, insonning haqiqiy sevgisini asos qilib olgan shoir ushbu sevgi qolipi vositasida oʻzining davlat boshqaruvi, shaxsiy manfaat va ijtimoiy adolat, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-maishiy va boshqa dolzarb masalalarni koʻtarib chiqib, doʻstondagi asosiy mavzuni bayon qilish jarayonida ularni ham, ketma-ket yechimini koʻrsatib beradi. Aynan davlatning boshqaruvi va ijtimoiy adolat, shohning xulq-atvorini va raiyatga munosabati haqidagi tasvirlar doʻstonning debochasidagi “Ul shohi risolatpanoh na’tikim, “lavloka” livoyi bila “ana afsaxu” alifi aning sipohi davlatig’a livo keldi, “va mo tag’o” to va g’ayni bila “asro” rosi aning misoli subutig’a tug’ro va ul misolda ikki olam saltanati mubayyan va ul misol yuzi mehri nubuvvat bila muzayyan” na’t bilan hamohang [Navoiy, 2006; 13].

Bob boshlanmasining ilk soʻzlaridanoq, ijodkor masalani koʻndalang qoʻyib, paygʻambarlar shohi, ikki olam sababchisi – Sarvari koinotning barcha zamonlar uchun ideal rahbar, hamma uchun oʻrnak ekanliklarini madh etadi. Buning isboti sifatida “lavlok”(1) va “ana afsah”(2) hadislarini hamda Kalomi sharifning “Isro” va “Najm”(3) suralaridagi oyatlar dalil qilinadi. Bobni u Rasulullohga salom yoʻllash va cheksiz hurmat va muhabbatini izhor qilishdan boshlagan Navoiy, u zotning nasabi-yu zoti, oilasi, qabilasi-yu urugʻi, tugʻilgan yurti, manzili – barchasini yoddan chiqarmaydi. Nur boʻlib kelib, dunyoni nurga toʻldirgani, ikki dunyo sohibi ekanligini tantanavor ruhda bayon etadi:

*Olam ahli raiyating boʻlubon,
Borigʻa din vasiyating boʻlubon.
Bu raiyatqa rahmat aylab Iloh,
Kim, berib boshlarigʻa sen kibi shoh.*

Alloh taolo Qurʻoni Karimning “Anbiyo” surasi 107-oyatida shunday marhamat qiladi: “(Ey Muhammad,) **Biz sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz**” [Mansur A., 2004; 489]. Darhaqiqat, Rasululloh solallohu alayhi vasallam barcha olamlar – farishtalar, jinlar, insonlar, hayvonot, oʻsimliklar, jonsiz narsalar olamiga, xullas, jamiki maxluqotlarga rahmat boʻlib kelganlar. Olamlarga rahmat boʻlish bilan birga, qoʻl ostidagilar, jaʼmiki ummatlariga ham mehribon va oʻta rahm-shafqatli zot ekanliklari haqida Allah taolo Qurʻoni Karimning “Tavba” surasi 128-oyatida shunday marhamat qiladi: “Darhaqiqat, sizlarga oʻzlaringizdan chiqqan, sizlarning qiyinchiliklaringizdan alam chekadigan, sizlarga qaygʻuradigan, moʻminlarga mushfiq va rahmdil Rasul kelgan” [Mansur A., 2004; 127]. Yuqoridagi misralar orqali shoir Bahromning fojiali qismatidan ogoh etib, odamlar orasida bugun oʻz qiymatini yoʻqotib borayotgan rahm-shafqat, mehr-muhabbat tuygʻulari inson komoloti uchun naqadar zarurligini uqtiradi.

Dunyo xalqlari tarixida muhim oʻrin tutgan, madhida minglab asarlar yozilgan, koʻplab tortishuv va munozaralarga sabab boʻlib kelayotgan Iskandarning faoliyati, uning jahongirliigi, donishmand va hakimligi yoritilgan yakunlovchi – beshinchi doʻstonda oʻzining shohlik, ijtimoiy adolat va komillik hamda mukammal jamiyat haqidagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tasavvufiy qarashlarini bayon etgan Navoiy

Iskandar obrazini mukammal bo'lishini istab, salaflardan farqli ravishda, Iskandar Zulqarnaynni ham hukmdorlik, ham hakimlik, ham jangovorlik xususiyatlarini ta'rif-u tavsif etgan. Navoiy uchun hayoti ibrat, ko'rsatgan yo'li yashash tarzi, o'rgatgan ta'limoti hayotiy e'tiqod bo'lgan buyuk zot, komillik timsoli – Hazrati Muhammad alayhissalam Navoiy uchun ideal edi. Shuning uchun har bir do'stoning debochasidan o'rin olgan nabi madhiga bag'ishlangan na'tlarga shoir alohida mas'uliyat bilan qarab, katta e'tibor bilan yondashib, Ushbu do'stonda shoir payg'ambar madhiga qolgan do'stonlarga qaraganda ko'proq mahdlar bitgan. Do'stondagi vasf na't va me'roj tavsifi uchun 3-4-boblar ajratilgan. Uchinchi “Ul Rasul amin na'tikim...” deb boshlangan bobi – 56 bayt, to'rtinchi – “Ul humoyi balandparvoz tayronining sur'ati ta'rifidakim...” deb boshlangan bobi esa 122 baytdan iborat.

*Zihi anbiyo xaylining sarvari,
Boshing uzra sarxaylliq gavhari.
Demay anbiyo qavmu xayling sening,
Bori ofarinish tufayling sening.*

baytlari bilan boshlanadigan ushbu bob “Ul Rasuli amin na'tikim, risolat xutbasida muborak alqobi sayyid ul-mursalin keldi va ul shafe' ul-muzannibin vasfikim, humoyun sifoti “Va mo arsalnoka illo rahmatan lil-olamin” yozildi, “alayhi afzal us-salavot va akmal ut-tahiyot” [Navoiy, 2006; 14] sarlavhasidayoq shoir Sarvari koinotning muborak nomlari “Sayid ul-mursalin” hamda “shafe' ul-muzannibin” va “rahmatan lil-olamin” ulug' sifatlarini esga olib, buyuk salovatlar va mukammal salomlar yo'llaydi.

Do'stonning tabiatiga uyg'un tarzda ushbu bobda ham jangovorlik va tantanavorlik ruhi ustun. Bobda ham Rasulullohning hukmdorlik, yetuk rahbar va mohir qo'mondonliklariga katta urg'u bergan. “Aytgin: “Allohim! Barcha podshohlikning egasi! Xohlagan kishingga podshohlik berursan va xohlagan kishingdan podshohlikni tortib olursan, xohlagan kishingni aziz qilursan, xohlagan kishingni xor qilursan. Barcha yaxshilik Sening qo'lingda. Albatta, Sen har bir narsaga o'ta qodirsan” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 95]. Ushbu “Oli Imron” surasining 26-oyatini tafsir qilgan Shayx Muhammadjon Rustam o'g'li “Vaqtiki, munofiqalar ta'na qilib aytdilarki: “Muhammad Makka mushrikalaridan qo'rqib, Madina atrofiga xandaq kovlaydi. “Eron va Rumni olaman”, – deb da'vo qiladi” [Shayx Muhammad Rustam o'g'li, 2022; 86]. Allah taolo munofiqalarning javobiga ayni shu oyatlarni nozil qilib, munosib javob bilan o'z Rasulini qo'llab-quvvatlaydi. Bu bilan qo'liga mulk, podshohlik berilgan insonlarga bu Yaratganning omonati bo'lib, undan qanday foydalangani so'ralur. Oyatni nozil bo'lishiga sabab bo'lgan Xandaq (Ahzob – guruhlar urush deb ham nomlanadi) urushi islom tarixida juda katta ahamiyatga egadir. Makka mushrikalarining kutilmaganda Madinaga urush qilish haqidagi xabari ham lashkar, ham urushga tayyorgarlik jihatdan kuchsiz bo'lgan madinaliklarni ochiq maydonda jang qilishdan ko'ra, shaharni mudofaa qilishga kirishdi. Salmon Forsiy taklifi bilan arablarda kuzatilmagan himoya xandag'i qazildi. Xandaq qazish ishlari juda issiq va qumli, toshloq joyda bir necha kun tinimsiz, qattiq

azob bilan qazildi. Ushbu mashaqqatli ishga boshchilik qilgan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalar bilan birgalikda ishladi, yer qazidi, tuproq tashidi. Ular bilan birgalikda barcha qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi. Imom Buxoriy Baro ibn Ozibdan rivoyat qiladi: "Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xandaq tuprog'ini tashiyotganlarini ko'rdim, qorinlarining terisi changdan ko'rinmay ketgan edi... Abu Tolha aytadi: "Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ochlikdan shikoyat qilib, qorinlarimizga bittadan tosh bog'lab olganimizni ko'rsatdik. Shunda u zot qorinlarini ochdilar, qarasak ikkita tosh bog'lab olgan ekanlar" [Muborakfuriy S., 2019; 457]. Ayni shu daqiqalarda, musulmonlar bilan shartlashgan yahud qavmlari ko'pchilikni sarosimaga solsa-da, yetuk rahbar sifatida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu qiyin vaziyatda ham o'zlarini yo'qotmay to'g'ri qaror qabul qildi. Ul Zotning ushbu urushdagi siyratlarida bizga juda katta va yetuk ibrat bor. "Bilib o'tganimizdek, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xandaq qazishda musulmonlarni buyurib qo'yib, o'zlari baland qasrlarda o'tirmadilar... Balki sahobalar bilan barobar ishga kirishib ketdilar, ust-boshlari changga belandi. Bu vaqtda ul zotni oddiy ishchilardan ajratib bo'lmadi. Sahobalar bir-birini g'ayratlantirish uchun she'rlar o'qishsa, ul zot ham ular bilan birga o'qir edilar, ularning ichida eng qiynalgani va och qolgani Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bo'lar edi" [Butiy R., 2020; 189].

Insonlarning barchasi Allohning huzurida teng ekanligi, hukmdorlar barcha hukmi ostidagi insonlar uchun doimo ibrat bo'lishi Payg'ambarimiz va Ul zotning muborak siyratlari misolida ko'rsatilib, do'ston voqealariga ishora qilinadi. Aynan Iskandarning qo'l ostidagilarga munosabati va devor qurilish lavhasi fikrimiz isbotidir. "Chunki Navoiy Iskandarni hukmdorlikdan tashqari, valiy, tabiati hikmat bilan oshno, qolaversa, nubuvvat chirog'i ko'zini yoritgan zot deb tasavvur qilgan" [Ismoilov I., 2020; 127].

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Insoniyat barcha sohada jadal ildamlab, yuksaklik tomon qadam qo'yib, yuqori darajalarga ko'tarilgani sari, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning siyratlarini barcha sohalarida o'rnak, komil xulq egasi, tengi yo'q qahramon va buyuk yetakchi sifatida anglab boraveradi. Insoniy barkamollikning asosi bo'lgan u zotning muborak hayotlari, o'n to'rt asr davomida, ilohiy Kalomullohni o'rganish, tushunish va yetkazishda, islom va uning ma'rifatini anglash, yuksak gumanistik g'oyalarini yoyishda butun insoniyat uchun amaliy-tatbiqiy ishonchli manba bo'lib xizmat qilayotir. Ayniqsa, Haqning qaror topishi va uning yo'lida ko'rsatgan mislsiz jasratlari, mo'jizalari asrlar davomida qalam ahli uchun ilhom manbai bo'lib kelayotir. Bu o'rinda Alisher Navoiy yetakchi shoirlardan hisoblanadi.

"Hayrat ul-abror"dagi uchinchi va to'rtinchi na't ayni shu masalalar badiiy talqiniga bag'ishlangan. Avvalo, ushbu na'tlar avvalgi na't boblarning mantiqiy-mazmuniy davomidir. Ayni paytda, o'z yaratilish tabiatidan kelib chiqqan holda xususiy jihatlari – o'zining muayyan doiradasi, poetik timsollar, betakror o'xshatishlar, g'oya va badiiyatiga ko'ra ham boshqa na't boblardan ajralib turadi. Unda avvalgi ikki bobda aytilgan umumiy fikrlar davom ettirilib, ushbu boblarda ijodkor ulardagi

umumiy fikrlarni konkretlashtiradi. O‘z ijodiy maqsadini aniq ifodalaydi. Zarur xulosalarni chiqariladi. Avvalgi boblarda uchragan poetik timsollar zimmasiga aniq vazifalarni yuklaydi.

“Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh bo‘lmoq aning soyasi va besh barmog‘iga qalam tutmay aqolimi sab‘ani yakqalama qilg‘oni, balki jami’ milal avroqig‘a nasx qalami chekkoni” [Navoiy, 2006; 31] sarlavhasi bilan boshlanadigan uchinchi na‘tda Payg‘ambarimiz payg‘ambarlikning dastlabki yillarida boshidan kechirgan qiyinchiliklar, haqiqat va iymon yo‘lida tortgan u zotning cheksiz azob-uqubatlari qalamga olinadi. Ijodkor bobning boshidayoq o‘zi ko‘zlagan va yoritmoqchi bo‘lgan masalani aniq va ravshan belgilab oladi. Navoiy o‘quvchilarda shubha uyg‘otmaslik uchun tarixiy-hayotiy voqealarni badiiy tahlil qilishda tarixiy prinsiplarga ham, badiiylik me‘zonlariga ham qat‘iy amal qiladi. Shu bilan birga, bobning aniq g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va mazmuniy jihatlarini ta‘minlagan tasviriy vositalar, poetik timsollarga ega betakror shoh baytlarni yaratadi. Ushbu baytlar bobning boshidan-oxirigacha Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning payg‘ambarlik sifatini vasf etadi. U zotning o‘z faoliyati, islom dini targ‘ibi va uni tarqatish yo‘lida ko‘rsatgan mislsiz jasorati katta mahorat bilan tasvirlangan ushbu bob Ul zoti munavvarni maqtab, ta‘rifini keltirish bilan boshlanadi:

*Ey sharaf avjida yuzung sham‘i mehr,
Soyadek ul shamg‘a niliy sipehr.
Soyalig‘ing bo‘lmasa gar varzishi,
Tushmak ayog‘ingg‘a nedindur ishi.
Turfaki sha‘m‘ingg‘a biyik poyadin,
Or o‘lubon sham‘ kibi soyadin.*

Bizga tanish bo‘lgan **“soya va nur”** ziddiyati ushbu bobda ham, asosiy poetik obrazlardan va ular na‘t boblarni orasidagi badiiy-mazmuniy bog‘liqlik, ayni paytda o‘ziga xos xususiylikni ifodalashga xizmat qiladi. Oldingi boblarda kelgan ta‘rif-u tavsiflar ushbu bobda yanada yorqinroq va yanada mukammallashadi.

Ijodkor payg‘ambarimizni tasvirlar ekan, an‘anaviy **nur** va **soya** timsollariga murojaat qiladi. “Nur manbai sifatida sham’, quyosh – mehr, Risolatpanohning chehrasi qalamga olinadi. Ana shu uch timsol misralar aro vobastalik, mazmuniy aloqadorlikni vujudga keltiradi. Ya‘ni, sening yuzing Quyosh sham‘i yanglig‘. Ko‘k osmon esa, yuzingdan taralgan nurning soyasidir. Shuning uchun ham hamisha oyog‘ing poyiga tushadi. Sening sham‘ing buyukligidan, soyadan or qilsa bo‘ladi” [Vohidov R., 1994; 80]. “Layli va Majnun” dostonida ayni shu fikrlarga hamohang fikr-tuyg‘ular yanada balandroq pardalarga ko‘tariladi.

*Ey jilvagahing sipehri axzar;
Raxshing izi rashki mehri anvar.
Ey mash‘ali mehr sham‘i johing,
Bal mehr-u sipehr xoki rohing.
Bukim sanga charx xoki rahdur;
Me‘roj tuni munga guvahdur* [Navoiy, 2006; 12].

Nabiy sollallohu alayhi vasallam vasfida, asosan, **tanosub va tazod** she'riy san'atlaridan muntazam foydalangan shoir quyosh, mehr, oftob, soya, tun, kecha, nur, yulduz, sha'm, mash'al, oy, falak, sayyoralar kabi samoviy jismlarga va borliqdagi boshqa ashyolarga murojaat qiladi. Ushbu samoviy jismlar xususiyatlarini **tashbeh va sifatlash** vositasida o'z maqsadi yo'lida chiroyli dalillash (**husni ta'lil**) yo'li bilan mohirona tasvirlaydi. U zotning yuzini quyoshga, ko'm-ko'k osmonni undan taralgan nurning soyasiga o'xshatgan Navoiy bunday ham qanoatlanmaydi. Balki osmon-u quyosh uning yo'lidagi chang-g'uborlardir. Bunga dalil guvoh esa, me'roj tuni. Misradan misraga, baytdan baytga, do'stondan do'stonga yuksalib borgan komillar komili tavsifi "Lison ut-tayr" do'stonida eng yuksak darajaga ko'tarilgan. Butun dunyoning yaratilishiga sabab bo'lgan zot – Buyuk Yaratilmishga Yaratguvchi ham oshiq ekanligi "Qush tili"da shunday bayon qilinadi:

*Nuri mavjud ofarinishdin burun,
Ki edi xalqig'a muddat olti kun.
Qoysi nur, ulkim topib yuz izzu noz,
Ul kelib ma'shuq-u, holiq – ishqboz...
Ra'yi chun ko'rguzdi sham'i mo'jizot,
Partavidin ravshan o'ldi koinot [Navoiy, 2006; 10-11].*

Payg'ambarimiz siyratlaridan bizga ma'lumki, u zot o'qish-yozishni bilmagan, savodsiz – ummiy bo'lganlar. "Alloh taolo "A'rof» surasida: "Ular o'z huzurlaridagi Tavrot va Injilda yozilgan holida topiladigan, ularni yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradigan, ularga pokiza narsalarni halol qilib, nopok narsalarni harom qiladigan, ustilaridagi yukni yengillatib, kishanlarni yechadigan Payg'ambarga – ummiy Nabiyga ergashadilar", degan (157-oyat). Alloh taolo "A'rof" surasida: "Bas, Allohga hamda Uning Rasuliga, Alloh va Uning kalimalariga iymon keltiradigan ummiy nabiyga iymon keltiring. Va unga ergashing, shoyadki, hidoyat topsangiz", degan (158-oyat). Yuqorida zikr qilingan "Jumu'a" surasidagi oyat. Ushbu oyatlardagi "ummiy" so'zining ikki xil ma'nosi bor. Birinchisi – o'qish-yozishni o'rganmaganlik. Ikkinchisi – Alloh taolo tomonidan kitob tushirilmaganlik. Islomgacha arablarda ikki ummiylik ham bor edi. Qur'oni Karim nozil bo'lgandan keyin kitob tushirilmaganlik ummiyligi yo'q bo'ldi. O'qish-yozishni bilmaslik ummiyligi esa, ta'lim bilan yo'q bo'ldi. Bu ummiylik oddiy kishilarga nisbatan ayb va nuqsondir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ummiyliklari esa, maqto'v va faxrdir" [<https://savollar.islom.uz/s/4617>]. Shuningdek, "Baqara", "Oli Imron", "Niso", "Hijr", "Al-Isro" va boshqa suralarda ham ana shu oyatga hamohang "Qur'on"i karimning nozil bo'lishiga doir lavhalar – oyatlar mavjud. Shubhasiz bunday ishonchli manbadagi oyat-dalillar Alisher Navoiyga ilhom baxsh etadi:

*Zoting edi javhari ulviy najod,
Tutmadi yer soyasi birla savod.
Qayda savod etgali chekkay raqam,
Qoldi chu mahrum iliyindin qalam.*

Garchi u zotning xat-savodi bo'lmagan, o'qish-yozishni bilmagan bo'lsa-da, barcha sohada komil, barchaga ibrat ko'rsatgan inson edi. "Tarixi Muhammadiy" asari va boshqa diniy kitoblarda keltirilishicha, so'nggi Payg'ambarni ummiy bo'lishini Allohning o'zi xohlagani, bunda katta-katta ma'nolar borligi ta'kidlanadi. Bu go'yo Alloh yuborgan "Qur'on"ni Muhammad to'qib chiqargan degan ig'volardan shuningdek, unga bo'lgan ishonchsizlikdan saqlash uchun oldindan qilingan choradek tuyuladi. Shuning uchun "Men ummiy payg'ambar – Muhammadman, mendan keyin boshqa birorta payg'ambar bo'lmaydi. Menga kalomning boshi-yu oxiri va javome'lari ato qilindi", – deb marhamat qilganlar [Hasaniy Muhammad, 2019; 67]. Alloh ko'rguvchi va o'zi bilguvchi, xatolardan holi Zotdir.

Navoiy Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamni vasf qilar ekan, ularning tarjimayi holi va payg'ambarlik mo'jizalarini asosiy manba sifatida oladi. Uning qalam ushlamagan qo'llari va noma yuzin qaro qilmagan barmoqlari oyni ikkiga bo'la olish imkoniga ega ekanligini shunday tasvirlaydi:

*Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing.*

Buyuk beshlikka rejanoma deb ta'riflangan "Hayrat ul-abror" – "Xamsa"dagi barcha do'stonlarni ochuvchi kalit bo'lganidek, yuqoridagi bayt ham "Farhod va Shirin" do'stonidagi quyidagi baytlarga ishora, xamirturish vazifasini o'tagan.

*Gar ilgi xoma sori qilmayin mayl,
Qo'yib xattig'a boshin yuz tuman xayl.
Necha choki giribon qildi xoma,
To'kub ashkini afg'on qildi xoma.
Ochib og'zin qilay deb das'tbo'si,
Muyassar bo'lmayin bu orzusi.
Chu bu davlatqa bo'lmay komron ul,
Qaro og'riqqa bo'ldi notavon ul.
Dema noleki sihhath topmayin hech,
Tushubtur rishtai jonig'a yuz pech.
Emas tirnog'i uzra xoma gar shaqq,
Bo'lub barmog'i no'gidan qamar shaqq.
Ilik tig'inki tortib fil-ishora,
Qamar qolqonin aylab ikki pora.
Bo'lub qursi mahi tobonni ikki,
Kishi andoqki bo'lg'ay nonni ikki.*

Ushbu baytlardagi chiroyli dalillash (**husni talil**), obrazli o'xshatish (**tashbeh**), ziddiyat (**tazod**) asosiga qurilgan qiyosiy jonlantirish (**tashxis**) va navoiyona nazokat kitobxonga bir tomondan, buyuk siyrat haqida ma'lumot bersa, ikkinchi tomondan, tarixiy-hayotiy haqiqatni orqali qalblarda u zotga muhabbatni yanada yuksaltiradi. Aslida, shoirning she'rdan maqsadi – Rasululloh oldida o'zining ojizligini his etib, gunohkorligini tan olish, bu foniyy dunyoda u zotning buyuk hayotidan o'rnak olib

yashash, uning shafolatga erishish istagini izhor qilishdir.

“Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka ahli Muhammad alayhissalomdan haqiqiy payg‘ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat – mo‘jiza ko‘rsatishni so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam duo qildilar. Allah taolo u kishining duolarini qabul qildilar va oy ikkiga bo‘lindi. Ikki bo‘lak orasida Xiro tog‘i ko‘rinib turardi... Yaqinda Hindistonda tarixiy yodgorliklarni o‘rganish jarayonida bir ibodatxonaning qurilish tarixiga oid hujjatlar ko‘rib chiqildi. Buni qarangki, mazkur xujjatda “Bu ibodatxona oy yorilgan kechaning ertasi kuni qurila boshlangan”, deb yozilgan ekan” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 178].

Rasulullohning go‘zal ko‘rinishlari va komil shamoillari vasfida “**nur**” va “**soya**”dan foydalangan Navoiy, Ul zotning payg‘ambarlik sifatleri madhida “**xoma**” va “**noma**”ga murojaat qiladi. Ushbu istioraviy juftlik payg‘ambar tarixini ochuvchi, asosiy axborot beruvchi hamda misralar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ta‘minlagan muhim obrazlardir. Shoir poetik fikrini davom ettirar ekan, tarixiy haqiqatlarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan g‘oyatda go‘zal baytlarga tasvirilaydi. Siliq jumlalarga ko‘p ma‘nolar yuklab, teran fikrlashni talab qiladigan dalillash san‘atining ustasi sifatida namoyon bo‘ladi:

*Qo‘ymadi gar bu qalaming bir nuqat,
Lek milal nasxig‘a ko‘p chekti xat
Yuz qarolig‘ homa kibi qildi fosh,
Kimki xatingdin chiqorur bo‘ldi bosh.
Tig‘i siyosat boshin etti qalam,
Kimki chiqordi raqamingdin qadam.*

Haqiqatdan ham, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ummiy bo‘lsalar-da, o‘zidan oldin kelgan ahli kitoblar e‘tiqod qilayotgan ilohiy kitoblarga e‘tiqod qilishni man etdi. Ularning “Nasxig‘a ko‘p chekti xat” va insonlarni o‘zi hidoyat yo‘liga boshladi. Agar bu yo‘lda kim adashsa yoki bu yo‘lni tark etsa, u xuddi qalam kabi o‘zining qoraligin fosh etti va albatta, munosib jazolarini oldi.

*Itsa qalam qayda g‘am o‘ldi sanga,
Chunki jahon yak qalam o‘ldi sanga.
Xattinga bosh qo‘ydi Ajam to Arab,
Tutmasang ilginga qalam ne ajab.
O‘pmadi ilgingni chu nolon qalam,
Motami aylab tur oni bu alam.*

“Mazkur satrlar g‘oyaviy mazmunining qay tomonga og‘ishidan qat‘i nazar, ular avvalo, yuksak san‘at asari sifatida diqqatni jalb etadi. Alisher Navoiy shoir qalamining mo‘jizasi ularda namoyon. Janobi Rasulullohning ummiyligini ulug‘ shoir o‘ta nozik o‘rovlarda beradi. “Itsa qalam” ayni o‘sha vazifani ado etmoqda. Ibora misrada o‘z ma‘nosida (qalamning yo‘qolishi) emas, majoziy mazmunni (savodning yo‘qligini) ifodalab kelayotir” [Vohidov R., 1994; 84]. Shuningdek, “yakqalam o‘ldi”, “Xattinga bosh qo‘ydi”, “nolon qalam” kabi iboralar ham majoziy ma‘noda qo‘llanib, shoir ijodiy

maqsadini ifodalashda, baytlardagi poetik fikrni anglash va mazmunni tushunishda kitobxonga muhim ochqich bo'lib xizmat qiladi. Bir maqsad atrofida hammani birlashtirmoq, ergashtirmoq degan ma'noni anglatgan – **“yakqalam qilmoq”** iborasi zimmasiga butun payg'ambarlik missiyasini yuklaydi. Ya'ni, sen butun xalqlarni bir Islom tug'i ostida birlashtirding, arab ham, Ajam (arab bo'lmaganlar) ham seni bayrog'ing ostida birlashdi. Ijodkor keyingi baytlarda o'z fikrini davom ettirib, “qalam”, “noma”, “xoma” so'zlariga ko'p murojaat qiladi. Ularning zimmasiga ko'p ma'no ifodalash vazifasini yuklaydi. Ayni paytda, misralardagi tayanch so'zlarning takrori baytlarga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi, poetik fikrni ifodalashda eng muhim vositaga aylanadi:

*Ey yog'umay nomag'a xomang sening,
Xoma yo'qu Haq sori nomang sening.
Haq azaliy zahmati jovidi sen,
Noma qaro qilg'on el ummiydi sen.
Kimki amal nomasin aylab qaro,
Sen kirib oning qaro joni aro.*

Hazrat Navoiy Xotamul anbiyoni o'qish-yozishni bilmagani – ummiyligini hech qabul qilolmaydi, hatto qattiq afsuslanadi. Oxiri o'zining xotirjamligiga sabab topadi. Ko'plarning taqdirini qaro qilgani uchun Ul zot qalamni qo'liga olmaydi.

Yuqoridagi baytga kelsak, uning mazmuni shunday: “Sening qalaming yo'q, ammo sening nomalaring Allohga yaqin. Ya'ni, sen o'zing ummiy bo'lsang ham, qilgan ishlaring Alloh oldida eng maqbulidir. Baxtiqarolar uchun azaliy va qadimiy bo'lgan zot – Alloh tomonidan yuborilgan rahmatsan. Umidsizlikka, baxtiqarolikdan ishonchsizlikka tushganlar joniga aro kirding, ularni hidoyatga boshlading. Sen keltirgan noma – shariat baxtiqarolar uchun zulmatdan chiqqan nurdir”. Ko'rinadiki, noma so'zi o'z ma'nosidan tashqari ham shariat, ham taqdir ma'nolarida kelib tajnisni go'zal namunasi sifatida istifoda etilmoqda.

*Zulmati kufr ulki bo'lub jam'anga,
Har “alif” isloming aro sham'anga.
Barcha milolg'a chu yurub himmating,
“Lom” ila “te” din lat urub millating.
Lotki andin edi dinga balo,
Sen ushotib payoni bo'ldi lo.*

Johiliyat davrida Makka shahridagi odamlar sanam va butlarga sig'inishgan. Aksariyat odamlar butparašt bo'lib, har bir oilaning o'z butlari bo'lgan. Lot arablarning eng mashhur va katta butlaridan bo'lib, ular butparaštlar uchun qadrlı va muqaddas iloh darajasiga ko'tarilgan edi. Shoir Arabiston yarim orolida Islomning yoyilishi, yakka xudolikning targ'ibi bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni tasvirlar ekan, **iyhom**, **harfiy**, **talmeh**, **tazod** va **husni talil** she'riy san'atlaridan juda unumli va o'z o'rnida foydalanadi. Ijodkor **kufr** va **islom** so'zlarini bir-biriga qarshi qo'yish orqali tazodning go'zal namunasi ko'rsatadi. Kufr – johiliyat, zulmat manbai timsoli bo'lsa,

Islom esa hidoyat yo‘li, nur manbayi va timsolidir. Islom so‘zi arabcha yozilganda (إسلام) alif harfi bilan boshlanadi. Har doim tik holda satr ustida yoziladigan “alif” harfi badiiy adabiyotda majoziy ma’noda, ro‘stlik, to‘g‘rilik, yorug‘likni ifodalashda qo‘l keladi. Shunga ko‘ra, islom (so‘zining arabcha yozilishi nazarda tutilyapti) bag‘rida aliflar go‘yo sham kabi yorug‘lik taratdi. Harfiy san’atning ustasi bo‘lgan Navoiy keyingi baytlarda iymonga murojaat qiladi. Ayni shu misralarda “...harflarni o‘ynatish san’atidan tashqari, iymom ham qo‘llangan. “Islom”da so‘zi “alif” va “lom” harflari bor. Xuddi shu belgilar “Lot”da ham ishtirok etadi... Yana “lom” va “te” milal – millat so‘zida ham keladi. Milalning ikkinchi sharhi “dinlar, mas’hablar” dir”. Ya’ni “lom” va “te” lardan barcha dinga zarar bordir. Lot doim dinga zarar balolar yetkazar edi. Sen uning oyog‘ini sindirding, natijada “lo”si qoldi” [Vohidov R., 1994; 84]. Lot so‘zi arabcha لاء tarzida yoziladi. Lotdan **te** – ت ketsa, **“la”** ya’ni, arabcha **“yo‘q”** qoladi. Seni himmating sabab kufr (jaholat, zulmat) yo‘qolib, odamlar hidoyatga (islom, yorug‘likka) erishdi.

*Kufr iliga ulki bor edi Manot,
Bo‘ynini sen sidurubon bo‘ldi mot.
Kufr boshin kesding etib qahr fosh,
Boshig‘a far qolmadi, jismig‘a bosh.*

Johiliyat davridagi yana bir mashhur butlardan **Manot** Navoiyning Komillar komili madhida yaratgan **kitobat**ining go‘zal namunasi. Manot arab yozuvida منات tarzida yoziladi. Undan **“nun – ن”** harfi olib tashlansa (bo‘yni sindirilsa), **mot** – مات qoladi. **“Mot”** so‘zi shaxmat o‘yinida ishlatiladigan atama va odatda, raqib shohining har tomondan yo‘li berkitilib, uni o‘rab olish, ya’ni, uning yurishiga imkon qoldirmaslikdir. Taslim qilish – yengishdir. Ya’ni, sen kufr eli butlarini yakson qilib, ularni imkonsiz qoldirding. Kufr xalqi kofirlari boshini kesib, ularni boshsiz qilding.

Muhammad sollallohu alayhi vasallamga berilgan payg‘ambarlik jismoniy belgilaridan biri – nubuvvat muhri edi. Bu muhr haqida boshqa do‘stonlardan ko‘ra “Saddi Iskandariy” do‘stonida ko‘proq va batafsil so‘z yuritgan. Navoiy: “Seni Alloh azaldan to abad shoh qilib yaratgandir. Bu dalili – nabiyluk muhringdir”, – deydi. Bu shunday yulduzki, quyosh nuriga nishon bo‘lgan, balki yulduz emas, Haqning hukmi bitilgan uzukdir. Bu shunday uzukki, seni vujuding sirlari bitilgan oddiy jism emas, shohlar xazinasidir. Kimgaki shunday uzuk berilsa, bu uzukning ko‘zida yeru osmon aks etsa, xayron bo‘lmaslik kerak. Sababi – bu uzuk emas, aslida, oy yuzidagi bezakdir, yohud quyosh ustidagi soyadir.

*Falak bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq shah etmish azal to abad.
Guvah o‘ldi toji futuvvat munga,
Dalil o‘ldi muhri nubuvvat munga.
Bu muhriki naqshin tutub ul kitif,
Quyosh ichradur axtari munxasif.
Ne axtarki bir xotam etmish nishon,
Yadulloh aro xotam o‘lg‘on nihon.*

*Vujudungni chunqildi Haq ganji roz,
Haqiqat duru la'lidin yo 'q ma'joz.
Qilib fosh mahfuzi asror fanin,
Zaruratki muhr etti o 'z maxzanin.
Demay jismkim, ganji shohiydur ul,
Ne xotam, ningini ilohiydur ul.
Angakim ilig bersa mundoq nigin,
Niginida tong yo 'q zamonu zamin.
Gini yo 'qki, oy uzra piroyadur,
Quyosh ustida mushkdin soyadur.*

Nubuvvat muhri avvalgi samoviy kitoblarda Muhammad sollallohu alayhi vasallam sifatleri qatorida zikr etilgan. Ahli kitoblar orasida ilmi bo'lgan kishilar buni yaxshi bilganlar va u sabab ba'zilar islomni ham qabul qilgan. Nubuvvat muhri – payg'ambarimizning ikki kuraklari orasida joylashgan, kabutar tuxumidek kattalikda, atrofida no'xot donasiga o'xshash qizil rangdagi xollar va tuklar bilan qoplangan, rangi tanalarining rang bilan bir xil bo'lgan, bo'rtib o'sib chiqqan bir bo'lak go'sht – o'simtadir. Jobir ibn Samura roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ikki kuraklari orasidagi kabutar tuxumidek (keladigan) muhrni – qizil g'uddani ko'rdim”. Abu Nazra Avaqiydan rivoyat qilinadi: “Men Abu Said Xudriydan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muhrlari haqida so'radim. U: “(Nubuvvat muhri) u zot orqalarida bo'rtib chiqqan bir parcha go'sht edi”, deb javob berdi [Termiziy, 2020; 50].

Payg'ambarimiz muborak hayotining tarixiy voqealar tasviri bilan uyg'un davom ettirgan vasflar “Hayrat ul-abror”dagi to'rtinchi na'tda keladi. Unda, asosan, u zotning payg'ambarlik mo'jizalari, payg'ambarlik faoliyatining qizg'in davrlari, namozning farz bo'lishi, xalifai roshidinlar qalamga olinadi. Islom dinining odamlar qalbiga mustahkam o'rnashib, yer yuzida keng yoyilgani tarannum etiladi. Payg'ambar sahobalari, “Qur'on”i karim, hadislar va unga bog'liq voqealarni ijodning badiiyat talabidan chiqmagan holda, baytlar orasiga singdirib boradi:

*Ey nafasing moyai e'joz o'lib,
Ruhi qudus nutqunga ham o'lub.
Gohi takallum sanga mu'jiz kalom,
Nazmi kalomning bori mu'jiz nizom.*

Payg'ambarimizga berilgan mo'jizalardan yana biri, eng ulug'i bu kalomi sharif – Qur'oni karimdir. Ushbu ilohiy kitob Rasulullohga 22 yil davomida goh 2-3 oyat, ba'zan undan ham ko'proq hamda to'liq sura shaklida farishta Ruh ul-Qudus – Jabroil alayhissalom orqali nozil qilingan. O'z navbatida Muhammad sollallohu alayhi vasallam buni barcha odamlarga Jabroil alayhissalomdan qandoq olsalar shunday yetkazganlar. Yuqoridagi misralarda shunga ishora qilinmoqda.

Barcha payg'ambarlarni Alloh tomonidan inoyat etilgan betakror fazilatleri bo'lgani kabi Komillar komilining ham betakror, eng go'zal sifatlaridan biri – xushkalomlikdir. Alloh taolo Hazrat Rasulullohga shunday ta'sirchang nutq va yoqimli

ovoz bergan ediki, eshitgan odam ularga oshufta bo‘lib qoladi. Payg‘ambarimiz qisqa va lo‘nda jumlar orqali olam-olam ma‘nolarni ifodalagan. Faqat haqiqatni aytib o‘z nutqi bilan barchani o‘ziga qarata olgan, shuhrat qozongan. O‘z navbatida Qur‘oni karimdagi islomiy aqidalar, Allohning sifatleri, vahdat va tavidid g‘oyalari, mo‘min-musulmonlikning shartlari, falsafa va hikmat ilmi, oldingi o‘tgan nabiyilar va xalqlar tarixi, g‘ayb asrori ifodasi bo‘lgan tilsimli ma‘nolar, shuningdek mo‘minlarning kundalik hayotida zarur, doim murojaat etiladigan masalalarni sodda qilib, barchaga tushuntirib bera olgan notiq ham bo‘lganlar.

*Nukta fasohatda munaqqah sanga,
Shohidi da‘vo: “Ana afsah” sanga.
Sihhati hukm ichra hadising sahih,
Arzi fasohat kaloming fasih.
Nutq aro chun zohir o‘lub mu‘jizing,
Ahli fasohat bo‘lubon ojizing.*

Keltirilgan she‘riy parchada ijodkor u zotning yana bir ma‘naviy xazinasini, komil inson uchun dastur ul-amal bo‘ladigan mo‘jizaviy kalomi, barcha ahloqiy-ma‘naviy masalalar, ularning kamoloti va hayot tarzini yo‘lga soluvchi o‘gitlar – “Hadis”larga ishora qiladi. Hadislar – Qur‘oni karimdan keyingi eng mo‘tabar manba hisoblanib, inson hayotining barcha jabhalari: jismoniy, axloqiy, ma‘naviy va ruhiy holatini doimiy yoritib turuvchi, tarbiyalovchi nabaviy chiroqdir. Johiliyat paytida arablar orasida adabiyot, ayniqsa, she‘riyat juda rivojlangan bo‘lib, ilmi balog‘a va ilmi fasoha yuksak darajaga etgandi. O‘qimagan ummiy Payg‘ambarning nutqini, va‘zini eshitgan fasohat egalari lol qoldilar. Ul zotdagi balog‘a va fasohani ya‘ni, nutqidagi ravonlik va aniqlik, nihoyatda ishonarli va ta‘sirchanlikni ko‘rib ojiz qolganliklarini **mubolag‘a** bilan **tamsil** keltirib chiroyli dalillaydi. Shunga muvofiq keladigan hadislarning birida: “Men arablarning fasihrogi – ulardan go‘zalroq so‘zlaguvchisi bo‘ldim. Qurayishdanman, Ba‘ni Sa‘dda ulg‘aydim, Bani Zuhrada emizildim”, deganlar [<https://siyrat.uz/maqola/10292>].

*Zoting o‘lub bahri javohir nishon,
So‘z aro bahring kafi gavhar fishon.
Kaf neki, bahre bo‘lub ul panj shoh,
Yeti hubob ul suvg‘a bu yeti kox.*

Mazmuni: “Seni asling javohirlarga boy dengiz bo‘lib, so‘zlashganda bu dengizning kafi gavharlar sochadi. Bu kaf ham emas, besh shohdan iborat bahr bo‘lib, yetti osmonni yetti pufakchani yutgandek yutib yuboradi”. Go‘zal tasvirlar va o‘xshatishlar, javohirlarga to‘la dengiz tasviri bilan shoir kitobxonni Arabiston o‘lkasiga saodat asriga yo‘llaydi.

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Hudaybiya kuni odamlar chanqab qoldilar. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning oldilarida meshcha turardi. Bas, u zot tahorat qildilar. Odamlar u zot tomon shoshildilar. Shunda u zot: “Sizlarga nima bo‘ldi?” dedilar. “Bizda huzuringizdagidan boshqa tahorat qilishimizga ham,

ichishimizga ham suv yo‘q”, deyishdi. Bas, u zot qo‘llarini meshcha ichiga soldilar. Shunda barmoqlari orasidan xuddi buloqlarga o‘xshab, suv otilib chiqa boshladi. Biz ham ichdik, ham tahorat qildik”. “Necha kishi edinglar?” dedilar. “Yuz ming bo‘lsa ham yetar edi. O‘n besh yuzta (bir ming besh yuzta) edik”, dedi” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 496-497]. Uning kichik ko‘ringan, besh dengizga o‘xshatilgan besh barmog‘i oldida, yuksaklarni poyon etgan yetti qavat falak, aslida, yettita pufak kabitur.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam odamlarni johiliyatdan hidoyat sari boshlar ekan, bu yo‘lda bosiqlik, xushmuomalalik, go‘zal xulq va sabr bilan ularning ishonchi – imonini mustahkamladilar. Hidoyat topganlar safi ko‘payib, insonlar hayotiga qiyinchilik tug‘dirmay yangi islom shariati asta-sekinlik bilan olib kirildi, islomning boshqa ruknlari ham navbatma-navbat insonlarga o‘rgatila boshlandi. Ayniqsa, mo‘minlarning me‘roji bo‘lgan – namoz farz bo‘lganida musulmonlar uni bayramdek kutib olgani, kofirlar uchun esa namozning bitmas dardga aylangani shunday ta’riflanadi:

*Xamsa salotingg‘a chu navbat bo‘lub,
Panjayi islomg‘a quvvat bo‘lub.
Kufr qo‘lu panjasini ranja bil.
Bois aning ranjig‘a bu panja bil.
Faqr aro ul panja qabul etdi ranj,
Lek haqiqatda erur panj ganj
Panjai islom chu mahkam solib,
Kufr eti qo‘rg‘onidin xums olib.*

Navoiy qo‘lga kiritilgan besh vaqt namozni besh xazina (panj ganj) deb ta’riflaydi. Me‘roj tunida musulmonlarga farz bo‘lgan namoz Islom panjasi (dini) tabora mustahkamlanib borayotganiga dalil bo‘lib, ko‘plab sirtdan musulmon bo‘lib yurganlarni ham fosh etdi. Faqirlik, Allohga haqiqiy qullik qilish oddiy odamlar uchun ranj, azob ko‘rinsa-da, aslida, insoning Xoliqqa o‘zini xoksor tutib, har kuni besh mahal namozda yuzlanishi eng katta boylikdur. Shuningdek, namoz musulmonlarni bir kunda besh mahal bir yerga to‘plab, ularni birlashtirgan – eng ulug‘ va yagona ibodat bo‘lib, musulmon jamiyatining ma’naviy hayotida katta ahamiyatga ega edi. Namoz sabab musulmonlar bir-birining kundalik hayotidagi barcha yaxshi-yu yomon, g‘am-u qayg‘u, shod-u xurram kunlarida doimo yonida bo‘lib, haqiqiy ahvollaridan ogoh edi. Hadislarda keltirilishicha, nomozda ko‘rinmay qolgan sahobalarni Rasululloh sallallohu alayhi vasallam so‘rar, ba‘zan yonlariga chaqirtirar, agar kasal bo‘lsalar holidan xabar olgani borardilar. Namozga beparvo bo‘lgan shaxslarning hatto guvohligini ham qabul qilmasdilar. Namozning ana shunday katta ijtimoiy-ma’naviy foydalarini bilgan Navoiy yuqoridagi misralarda ta’kidlanganidek, namozni jamiyat va millatni bir davlat sifatida birlashtiradigan, bir maqsad sari yo‘llaydigan Allohning insonlarga bergan eng buyuk ma’naviy panj ganjlaridan biri deb biladi.

Makkadan Madina hijrat qilgan musulmonlar juda oz sonli va kambag‘al bo‘lib, hijratning dastlabki yillarida hamisha dushmanlarining kutilmagan urushidan

cho‘chib yashadilar. Madinadagi katta va serhosil yerlarga egalik qiladigan yahudiylar ham, musulmonlar bilan garchi oralarida tinchlik shartnomasi bo‘lsa-da, unga xiyonat qilardi. Natijada Islom tarixidan ma‘lum va mashhur bo‘lgan Haybar urushi bo‘lib o‘tdi. Musulmonlar yahudiylarning yetti qal‘asini fath etti. Ya‘ni, shoir tili bilan aytganda, hatto kofirlardan soliq – xums (4) undiradigan bo‘ldi. Islomshunos olimlarning fikricha, aynan Haybar urushidan keng, musulmonlar Arab jazirasidagi tengsiz kuchga aylandilar. Islom oldida biror jiddiy xavf qolmagan, barcha dushmanlar sindirilgan edi. Keltirilgan parchaning so‘nggi baytida aynan ushbu voqea badiiy tasvirlangan edi.

Panja timsoli zimmasiga ko‘p vazifalarni yuklab, uni dastlab, namoz, so‘ng xazina deb ta‘riflagan shoir, ushbu badiiy tasvirlarni davom ettirar ekan, navbatdagi misralarda panja timsoli orqali payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning mo‘jizalariga ishora qiladi:

*Dema ilik, tig‘eki bir bormog‘i,
Oyni iki bo‘ldi ishora chog‘i.
Tong emas ar ul kafi mu‘jiznamoy,
Qilg‘ach ishorat iki ayrilsa oy.
Noqasi er uzra chu raftor etib,
Har izi “Shaqqol – qamar” izhor etib.*

Hazrat Alisher Navoiy ushbu bobda Payg‘ambar va islom tarixi bilan bog‘liq voqea-hodisalarning ketma ketlik asosida izchillik bilan yoritadi. Bobning dastlabki qismida nabiy vasfi xulqiy mo‘jizalarini bayon etsa, uning davomidan xalqiy-amaliy mo‘jizalarini madh etadi. Bobning so‘ngida esa “Ul risolat sipehrining rif‘atida va barcha olamni sipehrdek ihota qilg‘on qudratida va as‘hobi bobidakim har biriga ul sipehrda bir kavkabi raxshandaliq sodiq dururki, “as‘hobi kan-nujum” bu mazmunga‘a notiq durur” [Navoiy, 2006; 33] bo‘lgan sahobalari haqida, din yo‘lida ko‘rsatgan jasoratlari qalamga olinadi. Albatta, ular faoliyati batafsil yoritilmaydi, balki baytlarda muayyan poetik timsollar orqali ishora qilgan holda islom shariatini joriy etish yo‘lidagi buyuk jasorati va xizmatlarini tezis ko‘rinishida baytlarga joylaydi.

*Xasmidin o‘lg‘onda anga parda g‘or,
Og‘zida o‘rgamchi bo‘lub parda dor.
Aylamasun deb el ila parda sayr,
Bayzasidin tugma toqib anda tayr.
Pardasi jon rishtasidin tor o‘lub,
Tugmalari gavhari shahvor o‘lub.
Qo‘ydi chu ul dom ila ul dona g‘or,
Ko‘rki ne davlat qushun etdi shikor.
G‘orda yori bilan ul tez xush,
Tog‘ ichida o‘ylaki oltun-kumush.*

Jumladan, ana shu voqealardan biri yuqoridagi baytlarda badiiy tasvirlanadi. Bu o‘rinda Makkadan Madinaga hijrat qilgan ikki do‘st – Rasululloh va uning

xalifasi bilan bog'liq hadis va ilohiy kalomlarga ishora bor. Aynan ushbu voqeaga dalil ma'nolar ummoni – Kalomi sharifning Tavba surasi 40-oyatida keltiriladi. "... Ular ikkovlon g'orda turganlarida, hamrohiga: "Mahzun bo'lma, albatta, Alloh biz bilan", – dedi. Bas, Alloh uning ustiga o'z sakinatini nozil qildi va uni siz ko'rmagan lashkarlar bilan qo'lladi. Kufr keltirganlarning kalimasini past qildi. Alloh kalimasi o'zi oliydir. Alloh Aziz va Hakimdir" [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 206].

Imom Buxoriy Anas roziyallohu anhudan, u Abu Bakr roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga g'orda edim. Boshimni ko'tarib qarasam, odamlarning oyoqlari ko'rinyapti. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga: "Yo Rasululloh, agar ular shundoq pastga qarasalar, bizni ko'radilar", – dedim. U kishi: "Jim bo'ling, ey Abu Bakr, ikki kishining uchinchisi Allohdur", – dedilar. Boshqa rivoyatda: "Uchinchisi Alloh bo'lgan ikki kishi haqida nima deb o'ylasiz", – deyilgan [Muborakfuriy S., 2019; 161]. Komillar komili yaqin safdoshi Abu Bakr bilan birga kofirlardan qochib g'orga yashirinadi. G'orga yaqin kelganda, kofirlar ularning izlarini yo'qotadi. Chunki Allohning inoyati bilan Payg'ambarimiz va Abu Bakr berkingan g'or og'zini o'rgimchak o'z to'ri bilan berkitadi. Kabutar esa shu to'r ustiga in qurib tuxum qo'yadi. G'or oldiga kelgan mushriklar bu manzarani ko'rib, bu yerga hech kim anchadan beri kelmaganiga ishonch hosil qilib, hafsalalari pir bo'lib ortlariga qaytadilar.

Navoiy uchun aynan shu oyat va hadislar hujjat-dalil bo'lib xizmat qilgan. Ijodkor voqeani aynan keltirmaydi. Bu uning maqsadi ham emas. Balki ulug' shoir tarixiy voqealarni badiiy sayqallab, navoiyona ta'rif-u tavsif bilan, badiiyat mezonlariga rioya etgan holda qayta tasvirlaydi. Komillar komilining ushbu holatiga kitobxonni ishonтира oladigan va zavqlantira oladigan betakror o'xshatishlar va tashbehlariga to'la tasvir manzarasini yorqin bo'yoqlarda shoir mohir rassomdek tasvirlab beradi. "O'rni kelganda, mubolag'aga zo'r bergan ulug' shoir, vaziyat talabiga ko'ra kichraytirish san'atiga ham tayanadi. O'rgimchakning tortgan to'ri – parda, kabutar ini va tuxumi uni shamol tajovuzidan himoya qiluvchi – tugma. Biroq oddiy matodan yasalgan tugma emas. Oliy navli gavhardan bunyod etilgan. Parchada nozik qochirimlar mavjud. Buyuk odamlarning poyi qadami tekkani uchun u manzil hashamli qasr tusini oldi" [Vohidov R., 1994; 86].

*Kufr chu e'loyi livo aylabon,
Nusrat uchun ding'a duo aylabon.
Kim iki tandin birin et tojvar,
Biri Abu Jahlu birisi Umar.
Qismati avvalg'i o'ldi azob,
Bo'ldi ikinchida duo mustajob.*

Muhammad alayhissalom islom dinini targ'ib etishning dastlabki yillarida Makka mushriklari tomonidan qattiq tayziqqa uchraydi. Ul zot yashirinib dinni qabul qilgan ozchilik musulmonlar bilan tog'-u toshlarda, g'orlarda ibodat qiladi. Ana shunday kunlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Allohga yolvorib

ularga qarshilik qilayotgan Makkaning ikki buyuk shaxsi yo Abu Jahl yo Umar ibn Xattobni islomga doxil qilishlarini so'rab duo qiladi. Baytlarda ta'kidlanganidek, Abu Jahlning qismati ayanchli bo'ldi. Ya'ni, Payg'ambarimizning amakilari bo'lmish asli ismi Abd al-Uzzo bo'lgan bu shaxs islom tarixida Abu Lahab – do'zax o'tining otasi laqabi bilan esga olinadi. Butun faoliyatini islom va uning targ'ibotchisiga qarshi kurashga bag'ishlagan, musulmonlar boshiga bitmas-tuganmas balolar yog'dirgan bu shaxs va uning ayoli muqaddas kitob Qur'oni karimda ham la'natlanadi. "Masad" surasining birinchi va uchinchi oyatlarida aynan ularning xatti-harakatlari bayoni keltiriladi.

Baytlarda ta'kidlangan shaxslarning ikkinchisi – Umar ibn Xattob bo'lib, u islom dinining targ'ibi, uning yoyilishiga katta hissa qo'shgan va jannatga kirishi bashorat qilingan o'n sahobadan biri, payg'ambarimiz tomonidan Foruq unvoniga sazovar bo'lgan, Abu Bakr Siddiqdan keyin 634-644-yillari xalifalik qilgan sharif inson edi. Manbalarda keltirilishicha, Umar roziyallalohu anhu islomga kirgandan so'ng, islom dini tarafdorlari ko'payib, musulmonlar ancha-muncha tazyiqlardan qutilgan ekan. Hatto Umar ibn Xattob taklifi bilan doim yashirin qilinayotgan ibodatlar, jumladan, namoz ham ochiq-oydin – hammaning ko'z oldida – Baytullohdan o'qiladigan bo'lgan ekan.

Shoir ushbu misralarda **talmehdan** mohirona foydalanadi. Abu Jahl va Umar timsollari orqali **ezgulik** va **yovuzlik** o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Ularning bir-biriga qarshi qo'yib **tazodning** yuksak namunasini aynan shu misralarda keltiradi. Shuning uchun bu na'tning navbatdagi misralarida payg'ambarimizning xalifalari bo'lgan Usmon ibn Affon va Hazrati Ali haqida ham xabarlar keltiradi. Ularning din yo'lidagi qilgan ishlariga olqishlar aytiladi.

*Buki kalomulloh angadur nasib,
Kim yo'q anga mu'jiza andin g'arib..
Sunbulidek borcha parishon edi,
Jomi' anga jomii Qur'on edi..
Makkani chun qildi juda dayrdin,
Tig' suyi birla yudi g'ayrdin.
Bo'ldi vale manzaradin but figan,
So'ngra nabi Haq evida but shikan.
Na'lini gar toji sharaf qildi arsh,
Qildi Ali na'lig'a egnini farsh.*

deb, – Usmon ibn Affonni Qur'oni karimni jamlab, Mus'haf holiga keltirishi va Hazrat Alining Makka butlarini yo'q qilishi madh etiladi. Payg'ambar ishining davomchilari bo'lgan to'rt sahobani tavsiflar ekan, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ruh bo'lsa, ular to'rt unsur degan qiyosni topadi:

*Ruh edi ul baxri nubuvvat duri,
To'rt rafiqi tananing unsuri, –*

Na't bobning so'nggida islomning butunlay rivoj topgani, dunyoga yoyilgani faxr bilan tilga olinadi va ularning oila a'zolari, yaqin qarindosh-urug'lariga rahmatlar

bo'lishini Allohdan so'raydi, ularning olqishlab, madh etadi, yaratgandan rahmat so'rab quyidagi baytlar bilan yakunlaydi:

*Ahli-yu avlodi-yu atboig'a,
Oli-yu ahfodi-yu ashyoig'a.
Tangri taolo karimidin qarin,
Yuz tuhafi "Rahmat ila yavmid-din".*

Barcha na't boblar kabi ushbu bobda ham komillar komilining din va hidoyat yo'lidagi faoliyati badiiy talqin etiladi. Bundan barcha insonlar komillar komilining insoniy fazilatlaridan, komil husn-u xulqidan o'rnak olishi, ma'naviy merosini o'rganib komillik sari intilishi lozimligi uqtiriladi.

XULOSA

"Xamsa" dostonlaridagi vasf na'tlarining badiiy mazmuni haqida aytilgan fikrlarda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Dostondagi ushbu boblar islomiy madaniyat va sharq kitobotchilik an'anasiga amal qilgan holda yaratilgan. Ushbu vasfna'tlarida Rasulluloh vasfi: tashqiko'rinishlari, xulqi va islom dinini joriy etishdagi ko'rsatgan jasoratlari va mo'jizalarini madh etsa, me'roj na'tlarda payg'ambarimizga berilgan buyuk in'om Ko'kka ko'tarilish voqeasi badiiy tasvirlanadi.

Mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan mazkur boblarda ijodkorning ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-tasavvufiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Ular vositasida shoir komil inson, mukammal jamiyat va komillik haqida o'z ideallarini tasvirlashga muvaffaq bo'lgan.

Go'zal tashbehlar va dalillash san'ati ustasi bo'lgan Navoiy Rasulullohning dunyoga kelishi, bolalik yillari, payg'ambarlik belgilarining ro'yobga chiqishini "dur", "sadaf", "gavhar", "durri yatim", "nur" kabi poetik timsollardan foydalangan holda taqdim etadi. U zotning tashqi ko'rinishlari, shakl-u shamoyilini tasvirlashda "nur va soya", "quyosh", "mehr", "yulduz", "oy", "falak", "sha'm", "chiroq", "kun va tun", soch, yuz kabi obrazlarga iymon, tashbeh, tazod, harfiy, mubolag'a, tanosub, irsoli masal kabi she'riy san'atlar vositasida murojaat qilsa, islom dini g'alabasi, yangi shariatning joriy etilishi va Arab va Ajamga yoyilishi, payg'ambar mo'jizalari bilan bog'liq tasvirlarda "noma", "xoma", "qalam", panja, barmoq kabi poetik obrazlaridan foydalanadi, talmeh, tashxis, tazod, kitobat, tamsil va husni ta'lil kabi badiiy san'atlar asosida poetik talqin etadi.

Izoh:

1. *Lavlok* – Lavlaka lama xalaq tul-aflaaq, – ya'ni, Sen bo'lmaganingda men falaklarni yaratmagan bo'lardim. Hadisi qudsiy.

2. *Ana afsah* – ana afsahu Quroyshin kullaho va afsahuha ba'diy Abbon ibn Said ibn Oss, – ya'ni, Men Qurayishning eng fasih so'zlovchisiman, so'ngra sahobalarimdan Abbon ibn Said ibn Ossdir. Hadis.

3. *Va ma tog'o* – Ma zog'al basaru va ma tog'o, – ya'ni, nigoh burilmadi ham,

haddidan oshmadi ham. Najm surasi 17 oyat.

4. *Xums* – urushda qo‘lga kiritilgan o‘janing beshdan biriga teng bo‘lgan qismi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulaziz Mansur. (2004). *Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
2. Abu Iso Muhammad Termiziy. (2020). *Shamoili Muhammadiya*. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
3. Alisher Navoiy. (2006). *Farhod va Shirin* (Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
4. Alisher Navoiy. (2006). *Hayrat ul-abror* (Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
5. Alisher Navoiy. (2006). *Layli va Majnun* (Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
6. Alisher Navoiy. (2006). *Sab' ai sayyor* (Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
7. Alisher Navoiy. (2006). *Saddi Iskandariy* (Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
8. Alisher Navoiy. (2019). *Lison ut-tayr*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
9. Barzanjiy, Sayyid Ja'far ibn Hasan. (2015). *Mavlid* (Tarjima va sharhlar muallifi Hasanxon Yahyo Abdulmajid). Toshkent: "Hilolnashr" nashriyoti.
10. Butiy, Shayx Muhammad Sai'd Ramozon. (2020). *Siyratni anglash*. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
11. G'afforova, Z. (2010). Navoiy na't g'azallarining o'ziga xos jihatlari. *O'zbek tili va adabiyoti*, 4, 45.
12. Hasayniy, Sayyid Muxammad. (2019). *Ikki olam sarvari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijod uyi.
13. Ismoilov, I. (2019). Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" do'stoni qiyosiy tahlili. *Fil. fan. fal. dok. dis*. Toshkent.
14. Ismoilov, I. (2020). *Navoiy ijodida Iskandar talqinlari*. Toshkent: "Bayoz" nashriyoti.
15. Malik, Akrom. *Hayrat ul-abror: matn, sharh, nasriy bayon, lug'at*. Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti.
16. Muborakfuriy, Safiyurohman. (2019). *Ar-raxiqul al-maxtum (Muhrlangan jannat sharobi): Rasululloh sollallohu alayhi vasallam siyratlari*. Samarqand.
17. Mullaho'jayeve, K. (2019). *Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi*. Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti.
18. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2008). *Tafsiri hilol* (6-juz). Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
19. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2008). *Tafsiri hilol* (1-juz). Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
20. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2011). *Hadis va Hayot* (19-juz): *olamlarga rahmat Payg'ambar*. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
21. Shayx Muhammadjon, Rustam o'g'li. (2022). *Qur'oni Karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimas*. Toshkent: "Munir" nashriyoti.
22. Vohidov, R. (1994). *Alisher Navoiy va ilohiyot*. Buxoro: "Navro'z" nashriyoti.
23. Yeniterzi, E. (1989). *Divan Şiirinde Na't. Doktora tezi*. Konya.
24. Yusupova, D. (2006). *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti: Alisher Navoiy davri*. Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti.
25. <https://siyrat.uz/maqola/10292>
26. <https://savollar.islom.uz/s/4617>

REFERENCES

1. Abdulaziz Mansur. (2004). *Translation and interpretation of the meanings of the Holy Qur'an*. Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
2. Abu Isa Muhammad Termizi. (2020). *Shamoili Muhammadiya*. Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
3. Alisher Navoi. (2006). *Farhad and Shirin* (Prepared for publication by Vahob Rahmon). Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
4. Alisher Navoi. (2006). *Wonders of good people* (Prepared for publication by Vahob Rahmon). Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
5. Alisher Navoi. (2006). *Layli and Majnun* (Prepared for publication by Vahob Rahmon). Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
6. Alisher Navoi. (2006). *Seven travelers* (Prepared for publication by Vahob Rahmon). Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
7. Alisher Navoi. (2006). *Alexander's wall* (Prepared for publication by Vahob Rahmon). Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
8. Alisher Navoi. (2019). *Lisan al-tayr*. Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
9. Barzanji, Sayyid Jafar ibn Hasan. (2015). *Mawlid* (Translation and commentary author Hasan Khan Yahya Abdulmajid). Tashkent: Publishing House of 'Hilolnashr'.
10. Buti, Sheikh Muhammad Said Ramazan. (2020). *Realization of virtue*. Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
11. Gafarova, Z. (2010). Peculiar aspects of Navo'i nat's ghazals. *Uzbek Language and Literature*, 4, 45.
12. Hosseini, Sayyid Muhammad. (2019). *Two masters of the universe*. Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
13. Ismailov, I. (2019). Comparative analysis of Alisher Navo'i's 'Alexander's wall' epic. *PhD thes. in phil. scien*. Tashkent.
14. Ismailov, I. (2020). *Interpretations of Alexander in Navo'i's works*. Tashkent: Publishing House of 'Bayoz'.
15. Malik, Akrom. *Wonders of good people: text, commentary, prose description, dictionary*. Tashkent: Publishing House of 'Tamaddun'.
16. Mubarakfuri, Safiurohman. (2019). *Ar-Rahikul al-Makhtum (The sealed wine of paradise): Sayings of the messenger of Allah, may God bless him and grant him peace*. Samarkand.
17. Mullahujayeva, K. (2019). *Alisher Navo'i's ghazal is a combination of mystical symbols and artistic arts*. Tashkent: Publishing House of 'Akademnashr'.
18. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. (2008). *Hilal interpretation* (Vol. 6). Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
19. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. (2008). *Hilal interpretation* (Vol. 1). Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
20. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. (2011). *Hadith and life: Thanks to the worlds Prophet* (Chapt. 19). Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Joint-Stock Company.
21. Sheikh Muhammadjan, Ruštam ugli. (2022). *Explanatory translation of the meanings of the verses of the Holy Qur'an*. Tashkent: Publishing House of 'Munir'.
22. Vahidov, R. (1994). *Alisher Navo'i and theology*. Bukhara: Publishing House of 'Navroz'.
23. Yeniterzi, E. (1989). Diwan Shiirinde Na't. *DSc thes. in phil. scien*. Konya.
24. Yusupova, D. (2006). *Uzbek classical and national renaissance literature: the era of Alisher Navoi*. Tashkent: Publishing House of 'Tamaddun'.
25. <https://siyrat.uz/maqola/10292>
26. <https://savollar.islom.uz/s/4617>